

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYASI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta‘lim sohasi: 530 000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi: 60530200 - Geografiya

Fan/modul kodi O'G14512	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbekiston geografiyasi	60	120	180
2.	<p style="text-align: center;">I. FANNING MAZMUNI</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda O'zbekistonning tabiiy geografiyasi bo'yicha kompleks bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – O'zbekiston tabiatini geografik o'rganish tarixi, O'zbekiston tabiatini shakllantiruvchi eng muhim omillar, tabiiy va mineral xomashyo salohiyati, O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish va uning ilmiy amaliy ahamiyatini ochib berish</p> <p>Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi</p> <p>O'zbekiston tabiiy geografiyasi fan dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning "Физическая география России" fani asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 reytingida 94-o'rinni egallagan bo'lib, geografiya yo'nalishi bo'yicha boy ilmiy-uslubiy tajribaga ega.</p> <p>Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:</p> <p>Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Kurslarda tabiiy geografiyaning nazariy fundamental bilimlari (masalan, relyef shakllanishi, iqlimshunoslik asoslari, gidrologik jarayonlar, tuproq qoplami va biomlar) chuqur o'rganish bilan birga, O'zbekistonning o'rganilayotgan tabiiy obyektlari va jarayonlari (masalan, tog' tizimlari, tekisliklar, sahrolar, daryo havzalari, ko'llar, iqlim zonalari) haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda zamonaviy amaliy vositalardan keng foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bunda real tabiiy xaritalar, iqlimiy, gidrologik yoki tuproqqa oid statistik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, tegishli hududlarda dala tadqiqotlarining ahamiyati, GIS (Geografik Axborot Tizimlari) platformalari va interaktiv modellar orqali bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlash ko'zda tutilgan.</p> <p>Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Kurslar talabalarda zamonaviy tabiiy geografik bilim va ko'nikmalarni xalqaro ta'lim mezonlari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan. Dasturlarda tegishli hududning (O'zbekistonning) global va mintaqaviy miqyosdagi muhim tabiiy-geografik hodisa va jarayonlari, jumladan, tabiiy-geografik zonalarning xususiyatlari, gidrologik rejimlar, cho'llanish, iqlim o'zgarishining ta'siri, transchegaraviy tabiiy muammolar (masalan, suv resurslari) kabi mavzular chuqur yoritilgan bo'lib, ular xalqaro ekologik va geografik tadqiqotlar kontekstida ko'rib chiqiladi.</p>			

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Kurslar talabalarida mustaqil va tanqidiy fikrlash, tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratadi. Talabalar O'zbekiston tabiatiga xos xususiyatlar hamda hudud tabiatida sodir bo'layotgan murakkab tabiiy jarayonlarni (masalan, aridlik sabablari, irrigatsiyaning atrof-muhitga ta'siri, tabiiy xavf-xatarlar) tahlil qilish, tabiiy (relyef, iqlim, suv, tuproq) va kartografik ma'lumotlar asosida ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish, hududning turli tabiiy qismlari orasidagi farqlarning (masalan, tog'lik va tekislik zonalar) sabab va oqibatlarini tahlil qilish kabi tahliliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI

1-mavzu. Kirish. O'zbekistonning geografik o'rni chegarasi, maydoni, tabiatining o'ziga xos xususiyatlari

Hududiy tabiiy geografiyaning obyekti va predmeti. O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Eng muhim landshaft-geografik xususiyatlari. O'zbekiston tabiatini shakllanishining asosiy qonuniyatlari, landshaftlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

2-mavzu. O'zbekiston tabiatini geografik o'rganilishi tarixi

O'zbekiston tabiatini geografik o'rganish tarixi bosqichlari. Ayrim olimlar va yetakchi ilmiy maktablarning O'zbekiston tabiatini o'rganishga qo'shgan hissasi. O'zbekistonda geografiya fanida shakllangan asosiy ilmiy yo'nalish va maktablar.

3-mavzu. O'zbekistonning geologik-tektonik tuzilishi va seysmikligi

O'zbekiston relyefini shakllantiruvchi omillar. O'zbekiston hududining geologik rivojlanish tarixi. Yer qobig'ining hozirgi kundagi epeyrogenik harakatlari. Zilzilalar. O'zbekistonning seysmik rayonlari. Foydali qazilmalari.

4-mavzu. O'zbekiston hududining orografik tuzilishi

Orografik tuzilishi. Relyef rang-barang tabiiy sharoitni shakllantiruvchi omil. Morfostruktura va morfoskulptura relyef shakllarining genezisi hamda geografiyasi. O'zbekiston relyefini turlarga ajratish masalalari va hududini geomorfologik rayonlashtirish.

5-mavzu. O'zbekiston iqlimi

O'zbekiston iqlimiga umumiy tavsif. Iqlim hosil qiluvchi omillar tahlili. Iqlim mintaqalarini va zonalarining shakllanishi. Havo haroratining o'rtacha yillik, yanvar va iyul oylaridagi taqsimlanishi. Termik resurslari va ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Havo namligi, bug'lanish, yog'inlarning yillik taqsimlanishi. Namlik resurslari va ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Qor qoplami. Shamollar va ularning turlari. O'zbekistonda atmosfera havosining tozaligini saqlash muammolari.

6-mavzu. O‘zbekistonning yer usti va yerosti suvlari, ulardan oqilona foydalanish

O‘zbekistonning yer usti suvlari taqsimlanishi. Daryolarning to‘yinishi, suv sarfi va loyqaligi. Sel hosil bo‘lishi, muzliklar, ko‘llar va ularning geografik taqsimlanishi. Orol va chuchuk suv muammosi. Asosiy kanallar va suv omborlari, ularning ahamiyati. Suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari. O‘zbekiston hududining yerosti suvlari, ularning hosil bo‘lishi va genetik turlari. Grunt (sizot) suvlari va ularning gidrokimyoviy xususiyatlari, zovur suvlari. Artezian va mineral suvlar. O‘zbekistonning erosti suvlari va ulardan oqilona foydalanish muammolari. Suv boyliklaridan oqilona foydalanish.

7-mavzu. O‘zbekiston tuproqlari, ularning tasniflanishi va xususiyatlari

O‘zbekiston tuproqlari, ularning xususiyatlari. O‘zbekiston tuproqlarining sho‘rlanishi va ularning oldini olish chora-tadbirlari. Yer resurslari, ularning holati va ulardan oqilona foydalanish. Muhofaza qilish masalalari.

8-mavzu. O‘zbekiston o‘simliklari, ularning kenglik zonalari va balandlik mintaqalari bo‘yicha taqsimlanishi. O‘zbekiston hayvonot dunyosi, ularning landshaft mintaqalari bo‘yicha tarqalishi

O‘simliklarning geografik tarqalishi. Ularining ekologik va geografik xususiyatlari. O‘zbekistonning cho‘l, adir, tog‘, yaylov o‘simliklari va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati, muhofazasi. O‘zbekiston hayvonotining landshaft zonalari bo‘ylab tarqalishi. O‘zbekiston hayvonotini muhofaza qilish muammolari. Hayvonlarning xo‘jalikdagi ahamiyati, muhofazasi.

9-mavzu. O‘zbekistonda tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish.

Qo‘riqxonalar, buyurtmalar, milliy bog‘lar.

O‘zbekistondagi ayrim regional va mahalliy geoekologik muammolar va ularning yechimi. Noyob landshaftlar va tabiat yodgorliklari muhofazasi. Qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, buyurtmalar. O‘zbekiston “Qizil qitob” i.

10-mavzu. O‘zbekiston landshaftlarining zonalligi va balandlik bo‘yicha mintaqalanishi, tasnifi, asosiy tasnif birliklari

Landshaft va uning morfologik qismlari. Tasniflash masalalari. O‘zbekiston landshaftlarining zonalligi va balandlik bo‘yicha mintaqalanishi, tasnifi, asosiy tasnif birliklari.

11-mavzu. O‘zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirish

Rayonlashtirish va uning turlari. O‘zbekistonni tabiiy-geografik rayonlashtirish. Mavjud rayonlashtirish sxemalarining tahlili. O‘zbekistonning o‘quv maqsadlariga moslashtirilgan tabiiy-geografik rayonlashtirish sxemasi.

12-mavzu. Regional qism. Tekislik kichik provinsiyasi okruglariga tavsif.

Ustyurt tabiiy geografik okrugi. Orol tabiiy geografik okrugi. Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugi

Geografik o‘rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog‘liqligi. Orografiya. Geomorfologik

tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari. Kanallari, suv omborlari. Yerosti suvlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi. Okrugda ajratilgan tabiiy-geografik rayonlar.

13-mavzu. Qizilqum tabiiy geografik okrugi. Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugi

Geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog'liqligi. Orografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari. Kanallari, suv omborlari. Yerosti suvlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi. Okrugda ajratilgan tabiiy-geografik rayonlar.

14-mavzu. Tog' oldi va tog' kichik provinsiyasi okruglariga tavsif (O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugi). Qashqadaryo tabiiy geografik okrugi. Surxondaryo tabiiy geografik okrugi

Geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog'liqligi. Orografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari. Kanallari, suv omborlari. Yerosti suvlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi. Okrugda ajratilgan tabiiy-geografik rayonlar.

15-mavzu. Mirzacho'l tabiiy geografik okrugi. Chirchiq – Ohangaron tabiiy geografik okrugi. Farg'ona tabiiy geografik okrugi

Geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog'liqligi. Orografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari. Kanallari, suv omborlari. Yerosti suvlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi. Okrugda ajratilgan tabiiy-geografik rayonlar.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston tabiatini geografik o'rganilishi tarixini jadvalda aks ettirish
2. O'zbekistonning geologik va orografik, geomorfologik kartasini tahlil qilish.
3. O'zbekiston iqlim kartasini chizish. O'zbekiston iqlimi, uni hosil qiluvchi omillar tahlili.
4. O'zbekiston daryolari, ko'llari, muzliklari, suv omborlari va kanallari jadvalini ishlash.
5. O'zbekiston tuproqlari kartasini chizish.
6. O'zbekiston o'simliklari kartasini chizish. O'zbekiston hayvonot dunyosi kartasini tahlil qilish.
7. Yozuvsiz kartada qo'riqxonalar, buyurtmalar, milliy bog'larni aks ettirish.

8. Tekislik kichik provinsiyasi okruglariga tavsif. Ustyurt tabiiy geografik okrugining tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash. Orol va Quyi Amudaryo tabiiy geografik okruglarining tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash. Qizilqum va Quyi Zarafshon tabiiy geografik okruglarining tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash.

9. Tog' oldi va tog' kichik provinsiyasi okruglariga tavsif. O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugini tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalda aks ettirish.

10. Qashqadaryo tabiiy geografik okrugi tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini to'ldirish.

11. Surxondaryo tabiiy geografik okrugining tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash.

12. Mirzacho'l tabiiy geografik okrugining tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash.

13. Chirchiq – Ohangaron tabiiy geografik okrugi tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash

14. Farg'ona tabiiy geografik okrugining tabiiy geografik komponentlar bo'yicha jadvalini ishlash.

15. O'zbekiston tog' va tekislik okruglarini bir-biri bilan qiyosiy taqqoslash.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- dokladlar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;

- konspekt yozish;

- glossariy tuzish;

- individual va guruhiy o'quv loyihasi;

- keys-topshiriqlarini bajarish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;

- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbaalar bilan ishlash;

- infografika tuzish;

- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;

- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;

- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekistonni tabiiy geografik o‘rganish tarixi bosqichlarni aniqlang va ularga qisqacha tavsif. 2. Ilmiy maktablar va ularni O‘zbekiston tabiatini o‘rganishga qo‘shgan hissasi. 3. O‘zbekistonda noqulay meteorologik hodisalar. 4. O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolarni (okruglar miqyosida). 5. Noyob landshaftlar va tabiiy yodgorliklarni holati va muhofazasi. 6. Global iqlim o‘zgarishining oqibatlari. 7. O‘zbekistonda cho‘llashish muammosi va uni oldini olish chora-tadbirlari. 8. O‘zbekistonda sho‘rlanish muammosi va uni oldini olish chora-tadbirlari.
3.	<p>V. TA’LIM NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekiston hududining tabiiy geografik o‘rganilishi; O‘zbekiston tabiatining o‘ziga xos xususiyatlari va shakllanish omillari; O‘zbekiston hududining geologik rivojlanishi, neotektonik harakatlar, reliefi va orografiyasining landshaftlarni shakllanishidagi ahamiyatini; iqlimi va ichki suvlarining shakllanishidagi qonuniyatlar; tuproqlarining turlari va xususiyatlari, ularning tasniflanishi; landshaftlarining xususiyatlari, ulardan xo‘jalikda oqilona foydalanish va muhofaza qilish; tabiiy geografik rayonlashtirilishi, tabiiy geografik okruglarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi; • O‘zbekiston hududining geologik tuzilishini; relyef turlari va ularning tarqalishini; iqlim elementlarining hudud va yil davomida o‘zgarish xususiyatlarini; er usti suvlarining turlari, ularning hududiy taqsimlanishi va gidrometrik ko‘rsatgichlarini; yer usti va yerosti suvlaridan oqilona foydalanish muammolarini; tuproqlarning xususiyatlari va yer resurslaridan foydalanishni; o‘simlik va hayvonlarning tarqalishini, ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini va muhofaza qilishni; qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar tarqalishi va ularning vazifalarini; tabiiy geografik okruglarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; • O‘zbekistonning tabiati, tabiiy geografik jarayonlar, ularning o‘zaro ta’siri, aloqadorligi va oqibatlarini to‘g‘ri anglash, aniqlash; har bir tabiiy geografik okruglarning mineral, biologik va yer-suv resurslari salohiyatini tahlil qilish va xo‘jalikda oqilona foydalanish; tabiatini muhofaza qilish va geoekologik muammolarini bartaraf etish yuzasidan xulosalar chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.
	<p style="text-align: center;">VI. MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi tabiiy fanlar tizimida qanday o‘rinni egallaydi? Ushbu fan O‘zbekiston hududidagi qanday tabiiy komponentlar va jarayonlarni o‘rganadi? 2. O‘zbekiston hududining tabiiy sharoitlari (iqlimi, relyefi, tuproq va suv

	<p>resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi)ni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlarni sanab o‘ting (masalan, dala kuzatuvlari, kartografik tahlil, statistik usullar, GIS texnologiyalari, masofaviy zondlash).</p> <p>3. O‘zbekiston tabiiy geografik tahlilining asosiy prinsiplari nimalardan iborat? Ushbu prinsiplarga asoslangan holda qanday ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi?</p> <p>4. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fanining ichki tuzilmasini izohlang. Unda iqlimshunoslik, gidrologiya, biogeografiya, landshaftshunoslik, tuproq geografiyasi kabi bo‘limlar qanday o‘rin tutadi?</p> <p>5. O‘zbekiston hududida sodir bo‘ladigan tabiiy geografik jarayonlar (masalan, cho‘llanish, eroziya, iqlim o‘zgarishi, tabiiy xavf-xatarlar) o‘zaro qanday bog‘liq? Ular boshqa tabiiy jarayonlardan qanday farqlanadi va ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’siri mavjud?</p>
4.	<p style="text-align: center;">VII. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VIII. KREDITLARNI OLIISH UCHUN TALABLAR:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">ASOSIY ADABIYOTLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ҳасанов И., Ғулломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2007. 2. Ҳасанов И., Ғулломов П.Н., Қаюмов А. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Университет, 2010. 3. Солиев А. Ўзбекистон географияси. Дарслик. Т.:“Университет”, 2014. 4. Safarov I . O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Т.: TDPII, “Zuxra baraka be/nis” bosmaxonasi. 2022. 277 bet. 5. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva “Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar”, Toshkent, 2015-y. 6. Q.Bahromov, G.Halimova «Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari», “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017 <p style="text-align: center;">QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.

	<p>2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent, 2005. Zokirov Sh.S., Ibragimova R.A. Orol tabiiy geografik okrugi. - T.: Mumtoz soz, 2015.</p> <p>3. Хасанов И., Фуломов П. Ўрта Осиё табиий географияси.- Т.: Университет, 2002.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>1. www.undp.uz 2. www.gwpcacena.org 3. www.geogr/msu.ru 4. http://www.geografiya.ru/ 5. https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fizicheskaya_%20geografiya_%20Rossii_new2023.pdf</p>
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	<p style="text-align: center;">FAN/MODUL UCHUN MAS'ULLAR:</p> <p>O.Tobirov - QDU Geografiya kafedrasini mudiri, g.f.f.d (PhD) O.Qo'chqarov – QDU Geografiya kafedrasini o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD)</p>
9.	<p style="text-align: center;">TAQRIZCHILAR:</p> <p>O.Qo'ziboyeva - QDU Geografiya v.b. professori, g.f.d. (DSc)</p>